

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

NAIM KARIMOV BIOGRAFIK ROMANLARIDA KIRITMA HIKOYALAR

Jo'raqulova Xumora Shuxratovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
tayanch doktorant.

e-mail: xumora.shuhratovna@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-9072-7227>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Naim Karimovning ma'rifiy-biografik romanlari tarkibiga kiritilgan hikoyalarning roman mazmuni, mavzusi va g'oyasi bilan aloqadorligi tahlil qilingan. Shuningdek, biografik romanlardagi epik chekinishlarning asar badiiy tuzilishidagi vazifasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kiritma hikoya, biografik roman, epik chekinish, badiiylik, tarixiylik.

ВСТАВНЫЕ РАССКАЗЫ В БИОГРАФИЧЕСКИХ РОМАНАХ НАИМА КАРИМОВА

Журакулова Хумора Шухратовна

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, базовый докторант.

Аннотация.

В статье анализируется связь вставных рассказов, включённых в структуру просветительско-биографических романов Наима Каримова, с содержанием, тематикой и идейной направленностью произведений. Также исследуется функция эпических отступлений в художественной структуре биографических романов.

Ключевые слова: вставной рассказ, биографический роман, эпическое отступление, художественность, историзм.

EMBEDDED STORIES IN NAIM KARIMOV'S BIOGRAPHICAL NOVELS

Jo'raqulova Xumora Shuxratovna

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature,
PhD Student.

Abstract.

This article analyzes the relationship between the embedded stories included in Naim Karimov's educational-biographical novels and the content, themes, and ideas of these works. It also examines the function of epic digressions within the artistic structure of biographical novels.

Keywords: embedded story, biographical novel, epic digression, artistry, historicism.

Kirish. Badiiy adabiyotda "kiritma hikoya" degan termin voqeaband sujetli asar tarkibiga kiritilgan mustaqil hikoyaga nisbatan qo'llaniladi. "Kiritma hikoya, odatda, asar sujeti bilan bevosita bog'lanmaydi, o'zining mustaqil sujetiga ega bo'lib, asar butunligiga mazmuniy jihatdan bog'lanadi va badiiy konsepsiyani ifodalashga xizmat qiladi, shu jihati bilan u mohiyatan gap tarkibidagi kiritma konstruksiyalarga o'xshashdir" [1].

Ayrim badiiy asarlarda muallifning turli maqsad-g'oyasiga ko'ra asosiy sujetdan uzilgandek tuyuladigan kiritma hikoyalar mavjud bo'ladi. Hatto qator she'riy asarlarda ham lirik chekinishlar mavjud. Ular, bir qarashda, asosiy sujetga aloqasizdek ko'rinsa ham, aslida bosh g'oya bilan umumiy birlik hosil qiladi.

Naim Karimovning ma'rifiy romanlarida bosh qahramon hayoti bilan bog'liq asosiy biografik sujet qatorida unga bevosita aloqador bo'lmagan yoki aloqasi nihoyatda zaif bo'lgan nisbatan mustaqil kiritma hikoyalar ham uchraydi. Bunday kompozitsion unsurlar asosiy narrativ oqimni kengaytirish bilan birga, asarning sujet-kompozitsion yaxlitligiga ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Asarda asosiy sujet rivojiga bevosita xizmat qilmaydigan, nisbatan mustaqil xarakterdagi kiritma hikoyalarning mavjudligi, aslida, kompozitsion yaxlitlikni susaytiradi. Ammo biografik asarda bu kabi kiritma hikoyalar va epik chekinishlar asarning o'qishligi va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydigan unsurlardan biri hisoblanadi. Naim Karimovning barcha ma'rifiy-biografik romanlarida bunday kiritma hikoyalarni uchratish mumkin. Ammo adabiy hikoyalardan farqli o'laroq, bu hikoyalar, asosan, sujetsiz va go'yo qo'shimcha ma'lumot sifatida berilgan. Bu kiritma hikoyalar muallif romanlarida asar strukturasi kiritilish usuliga ko'ra uch xil:

1. Muallif tafakkurida mavjud bo'lgan hodisalarning kiritma hikoya tarzida berilishi.
2. Bosh qahramon haqidagi boshqalarning xotiralari tarkibidagi kiritma hikoyalar.
3. Qahramonlarini yozishga undagan hodisalarning asarga kiritma hikoya tarzida qo'shilishi.

Birinchi usulga ko'ra kiritilgan hikoyalarni tahlil qilsak: Naim Karimovning "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy-biografik romanida muallif Maqsud Shayxzodani Yozuvchilar uyushmasidan chiqarishga qaratilgan harakatlar haqida yozar ekan, daf'atan Pushkinning Shayxzoda o'zbekchalashtirgan "Motsart va Salyeri"ning yaralishiga turtki bo'lgan tarixiy hodisa haqida keltiradi. Motsart va Salyeri haqiqatini yozar ekan, muallif undagi bosh voqeaning qahramoni hayotida ham boshqa ko'rinishda yuz berayotganligiga ishora qiladi. Salyerining Motsartni simob yordamida o'ldirganligini tasdiqlaydigan ma'lumotlar keltiradi, uning vasiyatnomasida o'z og'zidan aytilgan iqrori mavjudligi

haqidagi dalillarni romanga olib kiradi. Shayxzodaning hayotida ham shunday bo'ladi. Ya'ni, o'z yaqinlari, do'stlari va shogirdlarining xiyonatlariga nishon bo'ladi. Aynan ularning "yordami" sabab Shayxzoda Yozuvchilar uyushmasidan chiqarilibgina qolmay, qamoq jazosini ham ko'rishga majbur bo'ladi. Naim Karimov bu kiritma hikoyani keltirishdan maqsadi barcha ko'zga ko'ringan shaxslar yonida, albatta, hasadgo'ylar ham bor ekanligini dalillar vositasida kitobxonga yetkazish edi.

"Cho'lpon" ma'rifiy-biografik romanida ham Cho'lponning "ezgu niyatli kishilar-u ma'rifat bulog'idan suv ichib yurgan, Xudoni, oqibatni o'ylab ish qiladigan kishilardan hayot sabog'ini" olganini, "uning yuragida toza qon zarralari charx ura boshlagani" [1]ni aytish uchun Volodya va Dmitriy Ulyanov haqida hikoya keltiradi. Voqeaga ko'ra, akasi ukasiga echki va bo'ri haqidagi masalni doim aytib beradi. Garchi ukasi bundan juda qo'rqsa ham. Natijada, ukasi ham masaldan qo'rqmay, qahri qattiqlashib qoladi. Romanning umumiy ruhiga va sujetiga aloqasiz bo'lgan bu kiritma hikoya faqat Cho'lponning qalbi yumshoq, muloyim va rahmdilligini aytish uchun keltiriladi.

"Usmon Nosir" ma'rifiy-biografik romanida ham 1-usul bilan kiritilgan kiritma hikoya mavjud. Unda mashhur shaxmatchi Vilgelm Steynis haqidagi bir voqea keltiriladi. Bu hikoya ham bir qarashda asosiy sujetga aloqasizdek, hatto kiritilmasa ham, asar hech narsa yo'qotmaydi. Bu hikoya ham bosh qahramon — Usmon Nosirning kirishuvchan va shinavanda ekanligini aytish uchungina beriladi. Yana Sergey Yesenin va u doimiy mijozi bo'lgan "Stoylo Pegasa" kafesining peyzaji keltirilar ekan, bu tafsilotlar ham faqat Usmon Nosirning ham Yesenin kabi sho'x, yosh va iste'dodli ekanligini, uning hayot kechirish tarzi qisman Yesenninikiga o'xshashligini aytish uchungina beriladi. Romanda yana shunday qiziqarli voqea beriladi. Bu voqeada ham sujet yo'q. "Donishmandning yoshligi" filmiga rol ijro etish uchun taklif qilingan ekstrasens Juna Davitashvilining ajoyib bashoratlardan parchalar keltiriladiki, buning Usmon Nosir bilan va uning hayoti bilan umuman aloqasi yo'q. Bu kiritma hikoyani Naim Karimov Usmon Nosirning "Norbo'ta" dostonidagi bosh qahramonlardan biri Sarvaroyning tushi tasvirini izohlashda qo'llaydi, xolos. Zotan, bu kiritma bo'lmasa ham, holat o'quvchiga tushunarli.

"Mirtemir" ma'rifiy-biografik romanida ham muallif kiritma hikoya beradi. Bu Bibi Maryam haqidagi hikoyat bo'lib, Naim Karimov diniy manbalarda keltirilgan voqeani "Injil" asosida beradi. Shu bilan birga, bu hikoyaga muallifning o'zi eshitgan rivoyatlarni ham qo'shadi. Bularning barchasi esa Mirtemirning "Bibi Maryam" she'rining qahramoni naqadar go'zal va pokiza ekanligini aytish uchun beriladi.

2-usul, ya'ni Naim Karimovning qahramonlari haqida ularning zamondoshlari xotiralaridagi hikoyalarning keltirilishi orqali ham muallif asarni yanada qiziqarli qilishga intiladi. Uning badiiyatini boyitishga harakat qiladi. Jumladan, muallif "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy-biografik romanida teatr aktrisasi Shohida Ma'zumovaning xotiralaridan parcha keltirar ekan, Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy dramasi asosida ishlangan "Jaloliddin" pyesasining sahnalashtirish jarayonlari haqida hikoya qiladi. Pyesaning tomoshabopligi va mashhurligi haqida xotirana'vis aytar ekan, bu bilan muallif Shayxzodaning asari naqadar salohiyatli ekanligini aytmoqchi bo'ladi. Yana shu romanda Maqsud Shayxzoda haqidagi yana bir xotirana'vis Turob To'laning xotiralaridan parcha berilar ekan, xotira ichida xotira shaklida Sakinaxonimning G'afur G'ulom va Shayxzodaning otasi haqidagi qiziqarli hikoyachasi beriladi. Bu ham romanga o'zgacha badiiylilik beradi.

"Usmon Nosir" ma'rifiy-biografik romanida teatr san'ati namoyandalari Tamaraxonim, Mariya Kuznetsova, Abdulahad Qahhorovlarning xotiralaridan parchalar keltiriladi. Bu ham bir qarashda umumiy sujetga aloqasizdek. Ammo muallifning maqsadi shu xotiralar orqali Usmon Nosirning sahna san'atiga qiziqishining uyg'onishi va sahna uchun asarlar yozishga o'zida rag'bat uyg'onishini aytish uchun beriladi. Yana "So'nggi bek" kinofilmining suratga olinish jarayonidagi "qochish-quvish, otishuv" sahnasining sahnalashtirilmay, haqiqiy tarixiy hodisaning tasodifan kameralarga tushishi natijasi ekanligi va bu voqea tafsilotlarining keltirilishi ham Usmon Nosirda dramatik asar yozish ishtiyoqining alanganishini kitobxonga yetkazish uchun beriladi, xolos.

"Hamid Olimjon" romaniga yana murojaat etsak. Unda Mirtemirning xotiralaridan ham parchalar keltirilgan. Unda asarga hech qanday ta'sir qilmaydigan, sujet evolyutsiyasiga daxldor bo'lmagan kolxozchi yigitning no'noqligi haqida gapiriladi. Bu tarixiy davr manzarasini o'quvchiga kichik detallar bilan bo'lsa-da, anglatish maqsadida kiritiladi. Asardagi Rahim Qoriyevning xotirasidan keltirilgan hikoya esa ajoyib. U kitobxonning yodida qolarli. Unda xotira egasi bilan Hamid Olimjonning bozordan buzoqcha sotib olib, uni yengil mashinada manzilgacha olib kelishlari haqidagi voqeani Naim Karimov samimiy va kulgili qilib hikoya qilib beradi. Bu sahifalar o'quvchiga zavq va kayfiyat bag'ishlash bilan birga, bunday hodisalar davrning mashhur shoiri hayotida ham bo'lishi mumkinligini tasvirlaydi. Muallif romanda Nazir Aliyevning ham shunday qiziqarli xotiralaridan unumli foydalangan. Asarda Svetlana Somovanning xotiralaridan keltirilgan "Qora rayhon" sarlavhali qismcha berilgan bo'lib, unda muallif afsona va rivoyatlar ta'sirida yaratilgan bu hikoyatni ham xotirana'vis tilidan beradi. Bu kiritma hikoya ham o'quvchining yodida qoladigan, asarga o'zgacha ruh bag'ishlaydigan hikoyalardan biri hisoblanadi. Muallif shu xotiraga monand tarzda asarda shunday yozadi: "Naql qilishlaricha, Sadrididdin Ayniy sevimli shogirdi Hamid Olimjonning bevaqt vafot etganini eshitib, yum-yum yig'lagan va Toshkentga kelganida uning qabrini ziyorat qilib, qabr ustiga bir dasta qora rayhon qo'ygan ekan" [2].

"Hamid Olimjon" ma'rifiy-biografik romanida ham 3-usulga ko'ra kiritilgan hikoyalar mavjud. Naim Karimov Hamid Olimjonning kundaligidagi qaydlardan birini romaniga kiritadi. Bu ham sujetli hikoya bo'lmay, qahramonining fabulasi edi. Unda otalarini o'ldirgan o'g'illar hayoti va qismati haqida qisqa ma'lumot beriladi. Yoki G'afur G'ulom va Hamid Olimjon yozgan "Kanalnoma"ning ilhom manbai bo'lgan Mirzacho'l haqidagi xalq afsonasining keltirilishi ham asarni yanada badiiylashtirish imkonini bergan.

Asar to'qimasiga singdirib yuborilgan bunday kiritma hikoyalar asosiy sujet voqealari bilan yaxlit mazmuniy butunlikni tashkil qiladi va ayni shu butunlik adibning olam, odam va zamon haqidagi badiiy konsepsiyasini ifodalaydi. Kiritma hikoyalar hajmi, janr xususiyatlariga ko'ra turlicha (kiritma epizod, rivoyat, afsona, latifa, hikoya, qissa) bo'lishi

mumkin. Naim Karimov ma'rifiy romanlarida kiritmaning deyarli barcha janri uchraydi. Yuqorida keltirganimiz misollardagi, masalan, "Hamid Olimjon" biografik romanidagi otalarini o'ldirgan o'g'illar, kolxozchi yigitning no'noqligi kabilar kiritma epizod bo'lsa, buzoq bilan bo'lgan voqealar kiritma latifaga o'xshaydi. Mirzacho'l haqidagisi kiritma afsona bo'lsa, qora rayhon haqidagisi esa kiritma rivoyatdir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tarkibidagi kiritma hikoyalar qanchalik g'oyaviy butunlikka xizmat qilsa, biografik roman tarkibidagi kiritma hikoyalar ham shu qadar g'oyaviy yaxlitlikka xizmat qiladi. Shu bilan birga, biografik romandagi kiritma hikoyalar roman muallifining ilmiy salohiyati, qiziqish va bilim doirasi haqida ham xabar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov N. *Cho'lpon: ma'rifiy roman*. – Toshkent: Sharq, 2003. – 463 b. ([Open Library](#))
URL: <https://openlibrary.org/works/OL23903014W/Ch%C5%ADlpon>
2. Karimov N. *Maqsud Shayxzoda: ma'rifiy-biografik roman*. – Toshkent: Sharq, 2009. ([Innovative Publication](#))
URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/naim-karimov-1932/naim-karimov-maqsud-shayxzoda>
3. Karimov N. *Hamid Olimjon: ma'rifiy-biografik roman*. – Toshkent: Sharq, 2013. ([Open Library](#))
URL: https://openlibrary.org/works/OL31430953W/Hamid_Olimjon
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. – Toshkent: Akademiya, 2013. – 408 b. ([Zenodo](#))
URL: <https://akbt.urdu.uz/uz/books/4168>
5. Karimov N. *Mirtemir: ma'rifiy-biografik roman*. – Toshkent: Meriyus, 2012. – 281 b. ([Zenodo](#))
URL: <https://openlibrary.org/works/OL22910042W/Mirtemir>
6. Karimov N. *Usmon Nosir: ma'rifiy-biografik roman*. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2022. – 432 b. ([tsuull.uz](#))
URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/toplam_n.karimov_08.12.2022.pdf